


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE PRAISE OF SULTAN ISKANDAR MIRZO IN HAYDAR KHWARAZMI'S WORK “GULSHAN UL-ASROR”

Jamoliddin Aminjonovich Jorayev

Doctor of Philological Sciences (DSc)

Associate Professor of Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Timurids, science, cultural, literary, environment, art, literature, history, scientists, development.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: In the article, he gave brief information about the development of science during the reign of Sultan Iskandar Mirzani, the son of Umarshaikh Mirza, the grandson of Amir Temur, and the work of scientists and scholars, such as the poet Haydar Khorazmi and Muiniddin Natanzi, who worked in his court.

HAYDAR XORAZMIYNING “GULSHAN UL-ASROR” ASARIDA SULTON ISKANDAR MIRZO MADHI

Jamoliddin Aminjonovich Jo'rayev

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: temuriylar, ilm, fan, madaniy, adabiy, muhit, san'at, adabiyot, tarix, olimlar, taraqqiyot.

Annotatsiya: Maqolada Amir Temurning nabirasi Umarshayx Mirzoning o'g'li Sulton Iskandar Mirzoninig Forsda hukmronligi davrida ilm-fanning rivojlanishi va uning saroyida ijod qilgan shoir Haydar Xorazmiy va Muiniddin Natanziy kabi olimlar va fuzalolarning ijodi haqida qisqacha ma'lumot berdi.

ВОСХВАЛЕНИЕ СУЛТАНА ИСКАНДАРА МИРЗО В ПРОИЗВЕДЕНИИ ХАЙДАРА ХОРАЗМИЯ “ГУЛЬШАН УЛ-АСРОР”

Джамолиддин Аминжонович Джураев

Доцент Джизакского государственного педагогического университета

Доктор филологических наук (DSc)

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Тимуриды, наука, культурная, литературная, окружающая среда, искусство, литература, история, учёные, развитие.

Аннотация: В статье он дал краткую информацию о развитии науки в период правления султана Искандара Мирзани, сына Умаршейха Мирза, внука Амира Темура, а также о деятельности учёных и учёных, таких как поэт Хайдар Хорезми и Муйниддин Натанзи, который работал при его дворе.

Kirish. Haydar Xorazmiy Amir Temurning nabirasi Sulton Iskandar mirzo ibn Umarshayxning Forsning Sheroy viloyatida podsholigi davrida ijod bilan mashg'ul bo'lgan ijodkorlardan. 1405 -yilda Amir Temur Iskandar Mirzoni Hamadonga hokim etib tayinlaydi. 1410-yilda Pir Muhammad Mirzo Sheroyiy Kermon viloyatidan, Duchoha mavze'ida amir Xoja Husayin sharbatdor tomonidan qatl etilgach, 1410 -yilda Iskandar mirzo akasining vorisi sifatida uning o'rniga taxtga o'tiradi.

Iskandar Mirzo garchi oz muddat hukmronlik qilgan bo'lsa-da, shu muddat ichida o'zining saroyi atrofiga anchagina olim va shoirlarni to'play olgan edi. Bulardan Muyniddin Natanziy, Haydar Xorazmiy kabilar. Ma'lumki, XV asarning birinchi yarmida Samarqand va Hirot o'zining adabiy muhiti va ilmiy markazlari bilan birga bosha joylarda, jumladan Forsda ham birmuncha adabiy madaniy kuchlar to'planib, tarixda ma'lum iz qoldirdi.

Fors o'lkasidagi madaniy-adabiy muhit hali yetarlicha o'rganilmagan. Bu davrda ijod etgan so'z san'atkorlarining ijodiy faoliyati har tomonlama tekshirilmagan. Shunga qaramay mavjud ma'lumotlar asosida XV asrning birinchi choragida Forsdagi adabiy muhit to'g'risida -Haydar Xorazmiy yashab ijod etgan adabiy-ma'naviy muhit tug'risida qo'yidagilarni aytish mumkin. Buning misoli sifatida Muiniddin Natanziy keltirish mumkin. Muiniddin Natanziy haqida Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush- shuaro" asarida Muiniddin Natanziy Sulton Iskandan davrida Iroqu Ajam va Forsda shuhrat topgan olimlar jumlasidan bo'lib, Mirzo Iskandaning maqomot va holoti hamda tarixini yozgan", deb ma'lumot beradi .

Muiniddin Natanziy o'z asarini 816/1413/14- yilda yozib tugatgan va dastlab o'sha paytda Fors viloyati hokimi Amir Temurning nevarasi Sulton Iskandar ibn Mirzo Umarshayx (1384-1415) ga bag'ishlagan. Asarning Yevropa sharqshunoslariga dastlab ma'ulm bo'lgan qo'lyozma nusxalari sarlavhasiz hamda muallifi noma'lum bo'lgani uchun, u Bartold tomonidan shartli ravishda "Iskandan Anonim" ("Anonim Iskandara") deb nomlangan. Boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham asar nomi sifatida qabul qilingan bu ibora "Iskandarga bag'ishlangan muallifi noma'lum asar" deb anglashiladi .

Iskandar Mirzo haqida Hofiz Abro'ning "Zubdatu –tavorixi Boysung'uriy" va Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayin va majmai bahrayn" va Muiniddin Nataziyning "Muntahab ut-tavorixi Muiniy" asarlarida ma'lumotlar berilgan.

Muiniddin Nataziyning "Muntahab ut-tavorixi Muiniy" asari nashrining kirish qismidagi taniqli olim G'ulom Karimiyning mazkur asar haqidagi ma'lumotlari e'tiborga molikdir. Jumaladan, shunday deyiladi: "Davlatshoh Samarqaniy "Tazkirat ush-sharo" asarida: "Muiniddin Natanziy Sulton Iskandar davrida Iroqu ajam va Forsda shuhrat topgan olimlar jumlasidan bo'lib, Mirzo Iskandarning maqomot va holoti hamda tarixini yozgan". Natanziyning Mirzo Iskandarga bag'ishlagan tarixiy asar, ya'ni "Muntahab ut-tavorixi Muiniy"ni yozgan deb tushinish kerak. Uning birinchi tahririda Mirzo Iskandar haqida fasllar mavjud .

Haydar Xorazmiy Iskandar sultonni o'z asarida madh etishini o'sha davr an'anasi bilan izohlash mumkin. Chunki, o'tmishda har qanday, ijodkor o'z hokimi, o'z sultonini yoki asar yozishga ruhlantirgan kishini qoidaga ko'ra madh etmasdan, tilga olmasdan o'tmaydi. Sababi, Iskandar Mirzo maqtovg'a loyiq bo'lgan ishlarni amalga oshirgani manbalardan ma'lum. U ta'lim tarbiya, ma'rifat va matadiyatni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shgan hukdorlardan biri bo'lgan.

Iskandandar Mirzo xattot Ma'ruf Bag'dodiyga homiylik qilib, unga soyabon tiklaganlar va bir kishi qalam taroshlab turgan, mavlono esa kotiblik qilganligi haqida ma'lumotlar borilga . Amir Temurning o'g'li Shohruh mirzo Iskandar Mirzoni doimo qo'llab-quvvatlab turgan. Bunday qo'llab-quvvatlash tufayli ham Iskandar Mirzo Yazd shahri yaqinidagi Taft qishlog'ida mutasavvif shoir Shoh Ne'matulloh valiyga bag'ishlab masjid va xonaqoh qurib bergani manbalardan ma'lum.

Bunday holni Husayin Boyqaro saroyida vazirlik lavozimida bo'lgan Alisher Navoiy ijodida ham ko'ramiz. Iskandar sulton ko'pgina temuriyzodalarga nisbatan ilg'orroq bo'lgani, hur fikrli kishi bo'lganligi uchun shoir boshqa shahzodalarni ulardan o'rnak olishga chaqiradi.

Savrdek ozoda bo'lu rostkor,
Yo o'riku olma bikin mevador.
Naf'i tekur barchag'a yomg'ir bikin,
Yo tengiz o'rtasida jo'mdir bikin.
Rost kerak odameg'a e'tiqod,
Egri kishi topmadi hargez murod.
Bo'lma xaridorlar bila saxt ro'y,
Qilma zabunlarga qattiq go'fti-go'y.
Bo'lma ujuz olib og'ir sotquchi,
Unga kebak, sirkaga su qotquchi.
Kom bila topsang tag'i bozorni,

Bir yo‘li kuydirma xaridorni.

Sud ko‘rib qilma ziyoning unut,

Sudni savdoda ziyoni birla tut.

Haydar Xorazmiy yuqoridagi baytlarda Iskandar Mirzoni madh etar ekan, shu bilan birga inson sarvdek to‘g‘ri, o‘riku olma kabi mevali yoxud yomg‘ir singari xalqqa naf’- foyda keltiruvchi kishilar bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. U kishilarni shunday bo‘lishga rag‘bat etadi. Shoir fikricha, haqiqiy mehnat evaziga topilgan boylik gulday toza, umrning yoshlik davridek musaffo bo‘lishi kerak.

Xulosa shuki, XV asrning birinchi yarmida Fors o‘lkasida, Sulton Iskandar Mirzo hukmronligi vaqti juda qisqa vaqt davom etgan bo‘lsada, bu davrda olimlar, ijodkorlar uchun ma’lum bir muhit yaratilgan. Bu adabiy muhitda turli janrlardagi badiiy asarlar, tarixiy-badiiy kitoblar, she’rlar to‘plami-bayoz, rassomchilik, xattotlik sohasida ham ayrim ishlar qilingan edi. Haydar Xorazmiy va Muiyniddin Natanziy kabi yetuk olimlar va ijodkorlar yetishib chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla’ us sa’dayn va majma’ ul bahrayn, T., FAN, 1969
2. Alisher Navoiy, Muhokamatul lug‘atayin. 128 sahifa
3. Alisher Navoiy, 15 tomlik, 12 tom, Majolis un-nafois, 1996, 170 –sahifa
4. Valixo‘jaev B, O‘zbek epik poeziyasi tarixidan, T., 1974
5. Bartold V. V. Sochineniya. II tom 2 chast. Izdatelstvo “Nauka” Moskva, 1964
6. Davlatshoh Samarqandiy, Shoirilar bo‘stoni (Tazkirat ush-shuaro) , T., 1981
7. Lutfiy. Sensan sevarim. Bu misollar Lutfiy devonida bo‘lgani uchun, shu manbadan olindi. T., 1987
8. Haydar Xorazmiy. Gul va Navro‘z. Turkiya, Sulaymoniya kutuxonasi, 1911 raqamli qo‘lyozma
10. Faxriy Hiraviy, Ravzat us-salotin, Javohir ul- ajoyib, T.; “Mumtoz so‘z”, 2014
11. Shayx Nizomiy Ganjaviy Maxzun ul-asror/doston Ganjaviy. – Toshkent: «KAMALAK» nashriyoti. 2016